

EDITORIAL LEADERSHIP

Editor-in-Chief:

Temir Yusupov – DSc (Technology), Professor

Deputy Editor:

Djamila Isamatova – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Branch of the Gubkin Russian State University of Oil and Gas

Editorial Board:

Farkhod Chorshanbiyev – DSc (Agriculture), Associate Professor
Tashkent State Agrarian University

Firuz Rustambekova – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Gulmira Irgasheva – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Javlon Jurayev – PhD (Agriculture), Associate Professor
Tashkent State Agrarian University

Khusan Niyozov – PhD (Technology), Senior Lecturer
Tashkent Institute of Chemical Technology

Makhbuba Sharipova – PhD (Philology), Associate Professor
Bukhara State University

Mokhigul Otamirzaeva – PhD (Geography)
University of Business and Science


Muyassar Navruzova – PhD (Philology), Associate Professor
Bukhara State University

Oybek Ismailov – DSc (Technology), Professor, *Institute of General and Inorganic Chemistry, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*

Shukhrat Tukhtaev – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Umid Mukhitdinov – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology

Vasila Umarova – PhD (Technology), Associate Professor
Tashkent Institute of Chemical Technology



“MUNOJAT” AND THE REPRESENTATION OF THE HUMAN PSYCHE IN ABDULLA ORIPOV’S WORKS: A PHILOSOPHICAL STUDY OF HUMAN SUFFERING

Sabina Khushmurodova¹.

Lobar Usmanova².

¹ 2nd-year student of the Faculty of Philology and Language Teaching (English), University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan.

² Senior Lecturer, Department of Foreign Languages, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan (Scientific Supervisor)

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.19389040>

Key words: *Abdulla Oripov, Munajat motif, representation of the human psyche, human suffering, philosophical analysis, poetics, lyrical hero, spiritual inquiry.*

ABSTRACT

The purpose of this article is to provide a comprehensive analysis of the artistic and philosophical essence of the “Munajat” motif in Abdulla Oripov’s works. The study employs artistic-analytical, interpretative, and comparative methods, examining such works as *Listening to Munajat*, *Wisdoms*, and *The Sorrow of Years* from semantic and philosophical perspectives. The analysis demonstrates that the “Munajat” motif functions as a central artistic device in the poet’s poetics, expressing the multilayered structure of the human psyche. It reflects inner experiences, suffering, and the process of self-awareness. The findings confirm that this motif possesses not only a religious but also a philosophical and psychological dimension. In conclusion, the “Munajat” motif is interpreted as a universal model of the human psyche, and the necessity of studying Oripov’s poetics through ontological and axiological approaches is substantiated.

ABDULLA ORIPOV ASARLARIDA “MUNOJAT” VA INSON RUHIY OLAMINING TASVIRI: INSONIY DARDNING FALSAFIY TADQIQI

Kalit soʻzlar: *Abdulla Oripov, Munajat motivi, ruhiyat tasviri, insoniy dard, falsafiy tahlil, poetika, lirik qahramon, maʼnaviy izlanish.*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolaning maqsadi Abdulla Oripov ijodida “Munajat” motivining badiiy va falsafiy mohiyatini kompleks tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda badiiy-tahliliy, interpretativ va qiyosiy metodlardan foydalanildi hamda “Munajatni tinglab”, “Hikmatlar”, “Yillar armoni” kabi asarlar semantik va falsafiy jihatdan oʻrganildi. Tahlillar shuni koʻrsatdiki, “Munajat” motivi shoir poetikasida inson ruhiyatining koʻp qatlamli tizimini ifodalovchi markaziy badiiy vosita hisoblanadi. U insonning ichki kechinmalari, iztiroblari va oʻz-oʻzini anglash jarayonini aks ettiradi. Natijalar “Munajat” motivining nafaqat diniy, balki falsafiy-psixologik mazmunga ega ekanini tasdiqladi. Xulosa sifatida, mazkur motiv inson ruhiyatining universal modeli sifatida talqin qilinib, Oripov poetikasini ontologik va aksiologik yondashuvlar asosida oʻrganish zarurligi asoslandi.

Har bir millat adabiyoti uning ruhiy dunyosi, tarixiy xotirasi va maʼnaviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim madaniy fenomen sifatida namoyon boʻladi. Oʻzbek adabiyotida Abdulla Oripov ana shunday yirik ijodkorlardan biri boʻlib, uning sheʼriyati milliy ruhiyatni chuqur va serqatlam ifodalashi bilan ajralib turadi. Shoir ijodida inson ruhiyati, uning ichki kechinmalari, iztiroblari hamda maʼnaviy izlanishlari markaziy oʻrin egallaydi. Ayniqsa, “Munajat” motivi uning poetikasida alohida badiiy va falsafiy ahamiyat kasb etadi. “Munajat” tushunchasi anʼanaviy ravishda ilohiy muloqot, yaʼni insonning Yaratgan bilan ruhiy aloqasi sifatida talqin qilinadi. Biroq Abdulla Oripov ijodida ushbu motiv yanada kengroq semantik maydon kasb etib, insonning ichki dunyosi, uning dardlari va maʼnaviy izlanishlari bilan uzviy bogʻliq holda ifodalanadi. Shoir “Munajat” orqali nafaqat diniy, balki falsafiy-psixologik muammolarni ham ilgari suradi. Bu holat uning poetikasini chuqur ilmiy tahlil qilish zaruratini belgilaydi.

Zamonaviy jamiyatda ma'naviy qadriyatlarning qayta baholanishi jarayonida Oripov ijodining dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmonida yoshlarning ma'naviy kamolotini rivojlantirish zarurligi alohida ta'kidlangan. Shu nuqtayi nazardan, shoir ijodida ilgari surilgan ruhiy poklanish, vijdon va ilohiy muloqot g'oyalari bugungi yosh avlod uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi Abdulla Oripov ijodida "Munojat" motivining badiiy va falsafiy mohiyatini kompleks tahlil qilishdan iborat.

Abdulla Oripovning "Munojatni tinglab" she'ri uning ijodidagi muhim burilish nuqtalaridan biri hisoblanadi. Mazkur she'rda shoir mumtoz kuy –"Munojat" vositasida insonning ichki dunyosini badiiy talqin qiladi. Lirik qahramon ushbu kuyni oddiy musiqa sifatida emas, balki "ajdodlar nidosi" va "o'tgan kunlar armonlari"ning ifodasi sifatida qabul qiladi:

Kim qandayin tinglar navoni,
Kingadir u shunchaki bir sas.
Kimdir tushunmagay ma'noni,
Kimdir olar undan bir nafas.

Mazkur satrlar orqali shoir inson ruhiyatining turli darajalarini ajratib ko'rsatadi: hayotni yuzaki idrok etuvchilar va ruhiy teranlikka sho'ng'ishga qodir bo'lganlar. Bu yerda ruhiyat tasviri milliy ohang bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

Abdulla Oripov uchun ruhiyat tasviri faqat quvonch va shodlik bilan cheklanmaydi. Aksincha, u "dard"ni insoniy mohiyatni belgilovchi asosiy omil sifatida talqin etadi. Uning lirik qahramoni doimiy iztirob holatida bo'lsa-da, bu iztirob tushkunlik emas, balki ma'naviy uyg'oqlik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Shoirning inson qalbini anglashga qaratilgan izlanishlari uning falsafiy lirikasining asosiy mazmunini tashkil etadi. U ruhni jismdan ustun qo'yadi va ruh erkinligi g'oyasini ilgari suradi. Abdulla Oripov ijodi o'zbek adabiyotshunosligida keng o'rganilgan bo'lib, uning poetikasi turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. N. Karimov o'z tadqiqotlarida shoir ijodida milliy tafakkur va tarixiy xotira kategoriyalarining ustuvorligini ta'kidlaydi [1, B.112]. Uning fikricha, Oripov ijodi o'zbek xalqining ruhiy tajribasini badiiy ifodalovchi muhim manba hisoblanadi.

Quronov adabiyotshunoslik nazariyasi nuqtayi nazaridan shoir poetikasini tahlil qilib, undagi badiiy tafakkur va obrazlar tizimining murakkabligini ko'rsatadi [4, B.67]. O. Sharafiddinov esa Oripov ijodini inson ruhiyatining chuqur ifodasi sifatida baholab, uning lirik qahramoni doimiy ichki izlanish jarayonida ekanini ta'kidlaydi [5, B.45]. Q. Yo'ldoshev shoir asarlarida so'zning badiiy energiyasi va ramziy qatlamlarning yuqori darajada mujassamligini alohida qayd etadi.

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda Oripov ijodidagi "Munojat" motivi yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Ko'plab tadqiqotchilar ushbu motivni faqat diniy kontekst bilan cheklab talqin etadilar. Biroq zamonaviy ilmiy yondashuvlar ushbu motivni inson ruhiyatining falsafiy modeli sifatida ko'rib chiqishni talab etadi. Chunki "Munojat" shoir ijodida insonning ichki monologi, o'z-o'zini anglash jarayoni hamda ruhiy iztiroblarining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada badiiy-tahliliy, interpretativ va qiyosiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida Abdulla Oripovning "Munojatni tinglab", "Hikmatlar", "Yillar armoni" kabi asarlari tanlab olinib, ular matn tahlili asosida semantik va falsafiy jihatdan o'rganildi. Badiiy-tahliliy metod orqali she'riy matndagi obrazlar, ramzlar va metaforalarning ichki mazmuni ochib berildi. Interpretativ yondashuv matnni chuqurroq anglash va uning yashirin semantik qatlamlarini aniqlash imkonini berdi. Ushbu metod, ayniqsa, "Munojat" motivining ko'p qatlamli tabiatini ochishda muhim ahamiyat kasb etdi. Qiyosiy metod yordamida shoir ijodi mumtoz adabiyot an'analari bilan solishtirildi. Natijada "Munojat" motivining an'anaviy va zamonaviy talqinlari o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. Shuningdek, aksiologik yondashuv asosida asarlarda ifodalangan axloqiy qadriyatlar tahlil qilindi. Metodologik jihatdan mazkur tadqiqot integrativ yondashuvga asoslanadi. Ushbu yondashuv badiiy matnni faqat estetik obyekt sifatida emas, balki falsafiy va psixologik tizim sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Natijada shoir poetikasining ichki mexanizmlari aniqlashtirildi.

NATIJARAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Abdulla Oripov ijodida "Munojat" motivi markaziy badiiy-falsafiy element sifatida namoyon bo'ladi. U inson ruhiyatining eng nozik va murakkab qatlamlarini ochib beruvchi muhim badiiy vosita hisoblanadi. Shoir "Munojat" orqali insonning ichki dunyosini, uning iztiroblari, umidlari va ma'naviy izlanishlarini ifodalaydi.

Xususan, "Munojatni tinglab" she'rida lirik qahramon uchun munojat oddiy musiqiy hodisa emas, balki ajdodlar xotirasi va ruhiy dardning badiiy ifodasidir. "Kim qandayin tinglar navoni..." satrlari orqali inson ruhiyatining turli darajalari ifodalanadi. Bu esa shoirning chuqur psixologik tahlil uslubiga ega ekanligini ko'rsatadi.

1-jadval

№	Element	Badiiy ifoda	Falsafiy mazmun
1.	Munojat	She'riy ohang	Ruhiy izlanish
2.	Dard	Lirik kechinma	Ma'naviy uyg'oqlik
3.	Tavba	Ilohiy murojaat	Ruhiy poklanish

"MUNOJAT" MOTIVNING FUNKSIONAL TAHLILI

O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdulla Oripov poetikasida ruhiyat tasviri ko'p qatlamli va murakkab tizim sifatida shakllanadi. Mazkur tizim doirasida insonning ichki kechinmalari, ilohiy muloqot va falsafiy tafakkur o'zaro uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. "Munojat" motivi ushbu komponentlarni birlashtiruvchi markaziy semantik va badiiy mexanizm sifatida faoliyat ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, Abdulla Oripov ijodida "Munojat" motivi inson ruhiyatini ochib beruvchi universal badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu motiv orqali shoir insonning ichki dunyosini, uning ma'naviy iztiroblari va o'z-o'zini anglash jarayonini chuqur tahlil qiladi.

Bundan tashqari, mazkur motiv zamonaviy jamiyat sharoitida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki u insonni o'zligini anglashga, ma'naviy poklanishga va ruhiy kamolot sari intilishga undaydi. Shu jihatdan qaralganda, "Munojat" motivi nafaqat milliy, balki universal, global ahamiyatga ega badiiy-falsafiy fenomen sifatida baholanishi mumkin. Abdulla Oripov ijodida "Munojat" tushunchasi bir vaqtning o'zida ham aniq musiqiy-she'riy asar, ham keng qamrovli falsafiy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Shoir inson ruhiyatini tasvirlar ekan, uni ijtimoiy stereotiplardan xoli holda talqin qilib, sof insoniy va ilohiy haqiqatlarga yaqinlashtiradi. Uning she'riyati bugungi talaba-yoshlar uchun nafaqat estetik qadriyat, balki shaxsiy o'zlikni anglash va ma'naviy rivojlanish yo'lida muhim qo'llanma vazifasini bajaradi. Shu bois mazkur maqolada "Munojat" motivi yangi nazariy yondashuv — ontologik va aksiologik kategoriyalar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv mavjud ilmiy qarashlarni kengaytirish, shuningdek, shoir poetikasining ilgari yetarlicha yoritilmagan qirralarini ochib berish imkonini yaratadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari Abdulla Oripov ijodida "Munojat" motivining markaziy badiiy-falsafiy kategoriya sifatida shakllanganini asosli ravishda ko'rsatadi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, ushbu motiv shoir poetikasida nafaqat diniy-ruhiy mazmun bilan chegaralanmaydi, balki inson ruhiyatining murakkab va ko'p qatlamli tizimini ifodalovchi universal badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. "Munojat" orqali Oripov insonning ichki kechinmalari, iztiroblari, vijdoniy ziddiyatlari va o'z-o'zini anglash jarayonini chuqur falsafiy talqin etadi. Maqolada amalga oshirilgan badiiy-tahliliy, interpretativ va qiyosiy yondashuvlar shuni ko'rsatdiki, shoir ijodida ruhiyat tasviri individual psixologik holat bilangina cheklanib qolmay, balki milliy xotira, tarixiy tajriba va ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Xususan, "Munojatni tinglab" she'ri misolida ushbu motivning nafaqat estetik, balki ontologik va aksiologik mohiyati ochib berildi.

Lirik qahramonning “munojat”ni idrok etish darajasi orqali inson ruhiyatining turli pog‘onalari tasvirlanadi, bu esa shoirning psixologik tahlil uslubining chuqurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanganki, Oripov poetikasida “dard” kategoriyasi muhim o‘rin egallab, u insoniy mohiyatni anglashning asosiy sharti sifatida talqin etiladi. Shoir uchun iztirob – bu tushkunlik emas, balki ma’naviy uyg‘oqlik va ruhiy kamolot sari intilishning ifodasidir. Shu jihatdan “Munojat” motivi insonning ichki monologi, o‘z-o‘zini tahlil qilish va ruhiy poklanish jarayonining badiiy modeli sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, mavjud adabiyotshunoslik ishlarida “Munojat” motivi ko‘pincha diniy kontekst doirasida talqin qilingan bo‘lsa-da, uning falsafiy-psixologik qirralari yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilib, ushbu motivni inson ruhiyatining universal modeli sifatida asoslashga harakat qiladi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv Oripov poetikasini yangicha nazariy asosda talqin qilish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot doirasida ilgari surilgan mulohazalardan kelib chiqib, Abdulla Oripov ijodini o‘rganishda “Munojat” motivini faqat diniy fenomen sifatida emas, balki insonning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari va ma’naviy izlanishlarini ifodalovchi kompleks badiiy-falsafiy kategoriya sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, shoir poetikasini tadqiq etishda ontologik va aksiologik yondashuvlardan tizimli foydalanish uning ijodiy merosini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa nafaqat adabiyotshunoslik doirasida, balki yosh avlodning ma’naviy tarbiyasida ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. va boshq. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild: She'rlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011.
3. Oripov A. Yillar armoni: She'rlar. – Toshkent: Sharq, 2015.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
6. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

ILMIY TAQRIZ

Mazkur maqola Abdulla Oripov ijodida “Munojat” motivining badiiy va falsafiy mohiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘zbek adabiyotshunosligida dolzarb va yetarlicha chuqur o‘rganilmagan muammolardan birini yoritadi. Muallif tomonidan tanlangan mavzu zamonaviy ilmiy izlanishlar nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u milliy adabiyotdagi ruhiyat, ma’naviyat va falsafiy tafakkur masalalarini kompleks yondashuv asosida talqin etishga qaratilgan.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda “Munojat” motivi an’anaviy diniy talqindan chiqib, inson ruhiyatining falsafiy-psixologik modeli sifatida ko‘rib chiqiladi. Muallif ushbu motivni ontologik va aksiologik kategoriyalar doirasida tahlil qilib, Oripov poetikasining yangi qirralarini ochishga muvaffaq bo‘lgan. Bu yondashuv mavjud adabiyotshunoslik qarashlarini kengaytiradi va mazkur yo‘nalishda yangi ilmiy izlanishlar uchun asos yaratadi.

Maqolaning dolzarbligi zamonaviy jamiyatda ma’naviy qadriyatlarning qayta baholanishi jarayoni bilan bevosita bog‘liq. Muallif Oripov ijodidagi ruhiy poklanish, vijdon va o‘z-o‘zini anglash g‘oyalarining bugungi yosh avlod uchun ahamiyatini asosli tarzda ko‘rsatadi. Shu jihatdan, tadqiqot nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, uni ta’lim jarayonida, xususan, adabiyotshunoslik va filologiya yo‘nalishlarida foydalanish mumkin. Metodologik jihatdan maqola badiiy-tahliliy, interpretativ va qiyosiy metodlar asosida qurilgan bo‘lib, bu usullar tadqiqot obyektini har tomonlama yoritishga xizmat qilgan. Matn tahlilining chuqurligi va misollarning o‘rinli tanlanishi muallifning ilmiy tayyorgarligi yetarli darajada ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, metodologik asoslarning izchil bayon etilishi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlaydi. Maqolaning kuchli tomonlari sifatida muallifning mantiqiy izchilligi, terminologik aniqligi va ilmiy uslubga rioya qilgan holda fikr yuritishi alohida e’tiborga loyiq. Ayniqsa, “Munojat” motivining ko‘p qatlamli tabiati va uning inson ruhiyatini ifodalashdagi o‘rni chuqur va asosli tarzda ochib berilgan. Biroq ayrim kamchiliklar ham mavjud. Jumladan, maqolada ba’zi nazariy qarashlar yanada kengroq qiyosiy kontekstda, xususan, boshqa adabiyotlar yoki xalqaro tadqiqotlar bilan solishtirilgan holda yoritilishi mumkin edi. Shuningdek, ayrim xulosalar yanada konkret misollar bilan boyitilsa, tadqiqotning dalillilik darajasi oshgan bo‘lur edi. Umuman olganda, mazkur maqola ilmiy yangilikka ega, dolzarb va metodologik jihatdan asoslangan tadqiqot sifatida baholanishi mumkin. Muallif tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar ilmiy jamoatchilik uchun qiziqarli va foydali hisoblanadi. Shu sababli, maqolani ayrim kichik tahririy tuzatishlar bilan ilmiy jurnalda chop etishga tavsiya etish mumkin.

Disclaimer ©

This editorial review has been prepared by the Editorial Board of the *Journal of Research & Innovations* for the purposes of internal editorial assessment and quality assurance within the journal’s publication process. This review is intended to provide an analytical overview of the scientific content, methodological approach, and thematic relevance of the submitted work. It does not constitute peer review, does not replace independent expert evaluation, and should not be interpreted as reflecting the personal views of the author(s) or as representing the official position of the journal. The Editorial Board assumes no responsibility for the implementation, interpretation, or consequences of any observations, comments, or analytical conclusions contained in this review. The review may include content generated with the assistance of artificial intelligence tools used for editorial support purposes.

This editorial review is provided solely to enhance transparency in the editorial process and to support the maintenance of academic and publication standards.